



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Maxamatova Feruza Safaraliyevna

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INTELEKTUAL FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IJTIMOYIY JIHATDAN ZARURLIGI VA ULARNI AMALGA OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Anotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash va bu jarayonning ijtimoiy jihatdan zarurligi hamda ularni amalga oshirishning muhim jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: intellektual faoliyat, ta'lim va tarbiya jarayoni, intellektual tizimlar, ilm-fan taraqqiyoti, intellektual tizimlar.

Jamiyat a'zolarining intellektual darajasini rivojlantirish tobora globallashtirib bormoqda. Jamiyatning taraqqiyot darajalari esa jamiyatni intellektuallashtirishni ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kun talabi jamiyatning faol ishtirokchilarini ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni har tomonlama intellektual salohiyatli bo'lishligini talab etadi. Bular ta'lim tizimi oldiga bo'lajak o'qituvchilarni intellektual salohiyatli, ma'naviy etuk va innovatsion rivojlangan qilib tayyorlashdek muhim vazifani qo'yadi. Bunga sabab barcha yo'nalishdagi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni o'qituvchilar amalga oshiradi. Har qanday jamiyatning ravnaq topishi va rivojlanishi ostida mavjud ilm-fanning rivojlanishi yotadi. Qaysi mamlakatda ilm-fan taraqqiyotiga e'tibor berilsa, uning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilsa, o'sha mamlakatda rivojlanish va ilm-fanning taraqqiyoti kuzatiladi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohatlarning asosiy maqsadi rivojlangan davlatlar darajasiga mos keluvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdir. Bu borada ta'lim tizimida bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta'lim –tarbiya jarayoni o'qituvchilardan intellektual salohiyat va uni o'z o'quvchilariga etkaza olish yo'llarini ham mukammal bilishni talab qilmoqda. Bugungi

zamon talabi bo'lajak o'qituvchilardan zamon bilan hamnafas qadam bosishni va har doim o'z ustida tinmay mehnat qilishni talab qilmoqda. SHu sababli ham hozirda ta'lim-tarbiya jarayonini intellektuallashtirish zamonaviy pedagogikada dolzarb muammolardan biridir.

2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida yuksak ma'naviy – axloqiy salohiyatga, zamonaviy kasb-kor malakalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy tafakkurga ega bo'lib, hayotdagi muammolarning oqilona echimini topish mahorati bilan qurollangan, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati vazifalarini odilona baholay oladigan mutaxassislarning yangi avlodini tayyorlash, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatni chuqur his qiladigan kadrlarni tarbiyalab voyaga etkazishni nazarda tutgan ijtimoiy – pedagogik g'oya ilgari surilgan [1].

Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida xorij tajribasiga asoslangan talabalar bilimni nazorat qilishning elektron tizimi "Hemis" platformasining yo'lga qo'yilishi hamda talabalar o'quv faoliyatida kredit-modul tizimining joriy etilishi jamiyatning va bo'lajak o'qituvchilarning intellektual salohiyatiga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Bugunning bo'lajak o'qituvchisi o'zining yuqori intellektual salohiyati, ijobiy fazilatlarini bilan yoshlarga o'rnak bo'la olishlari lozim.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida juda keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sohasiga bo'lgan e'tiborni biz qabul qilingan bir qator qonun va farmoyishlarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 qarori, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalarini va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 qarori, "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" va "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" kabi qabul qilingan ta'lim sohasidagi qonunlar yurtimizda ta'lim sohasiga berilayotgan yuksak e'tibordan dalolatdir. Bunday davlat hujjatlarining amalga o'z ijrosini ta'minlash o'ta muhim bo'lgan murakkab masaladan iborat bo'lib kelmoqda.

Jamiyat rivojlanishining har bir davri ushbu konsepsiyaning o'ziga xos ta'rifini ishlab chiqdi. Atoqli rus olimi Sergeevich 1993 yilda "Новый мир" gazetasida chop etilgan maktubida intellektual erkinlik asosiy axloqiy kategoriya sifatida faqat o'z vijdoni va tafakkuri bilan chegaralangan bo'lishi kerakligini yozgan. Biz ushbu fikrlar orqali olimning har bir shaxsning o'zining shaxsiy sifatleri va qobiliyatlari orqali o'z intellektual erkinligining namoyon bo'lishligini nazarda tutadi. Inson o'z qobiliyatlarini to'la namoyon etsagina, o'z aqliy salohiyatini va aqliy imkoniyatlarini ko'rsatib bera oladi.

Agar biz tarixga nazar tashlasak, IX asrning ikkinchi yarmida aqlli odam - bu faqat o'z qobiliyati va ilm-fanga, bilimga bo'lgan ishtiyoqi tufayli bilim olgan va odamlar bilan kirishishga intilgan oddiy shaxs. Uning kelib chiqishi ijtimoiy tengsizlik bilan ham, sinflar bilan ham kurashni nazarda tutgan. Aql-idrok nafaqat yuksak aql-zakovat va yorqin ta'lim, balki u yaxshi xulq-atvor, o'z vijdoniga mos ravishda o'zi va boshqalar bilan hamjihatlikda

yashash qobiliyatidir, bu faol fuqarolik pozitsiyasi, or-nomus va qadr-qimmat tushunchasi, xohish-istaklarning yig'indisi hamdir. Intelektuallashtirilgan ta'lim tushunchasining asosini intellekt so'zi tashkil qiladi. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi shundan iboratki, u kishining voqea-hodisa mohiyatini to'laligicha bilishiga asoslangan va u orqali namoyon bo'ladigan faoliyati, insonning aqliy qobiliyati, hayotni va atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, dunyoni bilish, turli masalalarda bir qarorga kela olish qobiliyati, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra olish qobiliyatidir. Tafakkur tarixida intellekt to'g'risida fikr-mulohazalar turlicha bo'lgan. Hozirgi zamon falsafasida intellekt ham, iroda ham mavjud holatga asoslangan holda namoyon bo'ladi. Intelektual tizim va vositalar insonlarda bilim, hayotiy tajriba va idrok hamda zehn asosida, avvalo, o'z aqliy omilkorlik salohiyati, turmush tarzini turli yo'nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatidir.

Intelektual tizimlar insonning va insoniyatning intellektual mulki asosida shakllangan bilimlar majmuasi yordamida muammolarni hal qilishning aqliy va mantiqiy faoliyati tizimi hisoblanadi. Intelektual tizimlar kishilarning aqli, idroki, zakovati, ma'naviy jihatdan etuklik darajasini ham ifodalaydi va tasavvur, idrok, sinchkovlik orqali jamlangan materialni bilish usullari (taqqoslash, abstraksiya, tushuncha, hukm) orqali asosli bilimga ega bo'lish yoki mavjud bilimni tanqidiy tahlil etish qobiliyatini ham anglatadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim-tarbiya faoliyatiga tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, uni oqilona amalga oshirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy etukligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bilamizki, ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlash ta'lim standartlari, me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik adabiyotlar tizimi asosida amalga oshiriladi. Bunda bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Intelektual salohiyatga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilar "Intelektuallashtirilgan asr"ning faol ishtirokchisi bo'la oladi, ma'naviy jihatdan etuk bo'ladi, inovatsion jihatdan rivojlangan bo'ladi va bunday o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantira oladi. SHuning uchun bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan ta'lim asosida intellektual faoliyatga tayyorlash hozirgi ta'lim sohasidagi va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sohasidagi eng asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Intelektual faoliyat keng qamrovli tushuncha hisoblanib, o'zida shaxsning bilimi, tafakkuri, ongi, aql-idroki va bilish jarayonlarini qamrab oladi. Ko'pgina mualliflar odatda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va intellektual faoliyat deb ataladigan uchta faoliyat turini ajratib ko'rsatishadi. Bu tushunchalar orasidagi farqlarga e'tibor qaratsak, intellektual faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, ma'lumot bilan ishlashga e'tibor berish, insonning intellektual qobiliyatlaridan unumli foydalanish, kasbiy malakalar intellektual faoliyatning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Intellektual faoliyat - bu iqtisodiy faoliyatning har qanday sohasida, shaxsning intellektual qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladigan va axborot bilan ishlashga qaratilgan mehnat faoliyati turi. Intelektual faoliyatning asosini inson aqli - bu juda ko'p qirrali miqdor. Bu insonning ijtimoiy foydali tomonini ham, uning individual xususiyatlarini ham belgilaydi, ongning asosiy namoyon bo'lishi bo'lib xizmat qiladi. Aslida, aql - bu bizni hayvonot dunyosidan ajratib turadigan narsa, bu inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, unga atrof-dagi dunyoni dinamik ravishda o'zgartirish, o'zi uchun atrof-muhitni qayta qurish va tez o'zgaruvchan voqelik sharoitlariga moslashmaslik imkonini beradi. Aqliy qobiliyatni sinash yoki sinovdan o'tkazish har qanday bosqichda shaxsiyatni yanada rivojlantirishni rejalashtirish, shaxsning intellektual, axloqiy va psixologik evolyutsiyasi yo'nalishini

aniqlashga imkon beradigan eng muhim vazifadir. Psixologik tadqiqotning bir qator usullarida intellektual rivojlanish sinovlari alohida o‘rin egallaydi. Ta‘lim oluvchining yangi bilimlarni egallashi negizida ulardagi intellekt tarkib topa boshlaydi. Pirovard natijada ta‘lim oluvchining aqliy faoliyati yuksaladi va quyidagi layoqat ko‘rsatkichlari majmuasi sifatida o‘z ifodasini topadi: hayotini, atrof-muhitni ongda aks ettirish; fikrlash; o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish; ijtimoiy tajriba; turli masalalarni hal qilish; optimal qarorga kela olish; oqilona ish yuritish; voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish va shu kabilar.

Ma‘lumki, ijodkorlik, vazifalarga berilgan ma‘lumotni turli usullarda va tez sur‘atda ishlatish uchun maxsus qobiliyatni anglatadi. Bu hayratda qolish va bilish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda echim topish qobiliyati, yangi narsalarni kashf etishga e‘tibor va o‘z tajribasini chuqur anglash qobiliyati. Individuallikning asosiy sohalarida ijodkorlik belgilariga qo‘yidagilar kiradi, intellektual sohada: moslashuvchanlik, ravonlik, o‘ziga xoslik, nafislik, tanqid va nostandart fikrlash; motivatsion sohada: intellektual ehtiyoj uzatishga intilish, muammolarni echimini mustaqil izlashga e‘tibor berish, hissiy sohada: hissiyotlar va o‘z – o‘zini anglash; fan amaliy sohada: intellektual va kommunikativ qobiliyat, yangi, ehtimol misli ko‘rilmagan vaziyatlarda birgalikda ishlash qobiliyati; eksistenzial sohada: o‘zini ijodiy individuallik, ijtimoiy ta‘lim va kasbiy faoliyatdagi o‘rnini anglash, o‘z ijodiy salohiyatini anglash, o‘quv va ilmiy faoliyatdagi erkin mavqega ega bo‘lish; o‘zini – o‘zi boshqarish sohasida: ijodiy jarayonda aks ettirish, fikrlarini boshqarish, fikrlash jarayonini to‘g‘ri yo‘nalishda to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘z ijodiy faoliyati uchun mustaqil sharoit yaratish.

Hayot davomida ruhiy holat va intellektual qobiliyat bevosita ikkita omilga bog‘liq: ta‘lim va kasbiy malaka darajasi. YOshlikda inson olgan bilim darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, qarilikda shunchalik yaxshi aql saqlanib qoladi. Bundan kelib chiqadiki, agar inson intellektual ish bilan shug‘ullanadigan bo‘lsa, u butun umri davomida o‘qiydi, o‘zini takomillashtirishga intiladi. Intellektual faoliyat natijalari insoniyatning eng qimmatli mahsulotlaridir, ular mamlakatlar va ularda yashaydigan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual salohiyatini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo‘lib, ular sirasida ma‘naviy-ahloqiy, ijtimoiy-g‘oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma‘ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o‘quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o‘yinlari yanada samarali sanaladi. YUqoridagi usullar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda intellektual salohiyat rivojlanadi.

Oliy ta‘lim tizimida ta‘lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, intellektual salohiyatni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko‘rish ko‘zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma‘lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko‘ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishini kuzatish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi. SHunday qilib, intellektual faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari har bir insonning ichki, shaxsiy fazilatlariga va tashqi omillarga bog‘liq.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash intellektuallashtirilgan o‘qitish vositalari va tizimlari yordamida ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi o‘rtasidagi interfaol

muloqot negizida bo'lajak o'qituvchilar bilish jarayonining muntazam ravishda yuksalib borishiga shart-sharoit yaratish va ular asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini amaliy-kasbiy faoliyatga tayyorlashning optimal variantini ishlab chiqish hamda ushbu sohada ijobiy sifat darajasiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish, ya'ni innovatsion ta'limni tashkil etish kerak. Ma'lumki, intellektuallashtirilgan tizimlar va vositalar bo'lajak o'qituvchilarga tushunchalar va bilimlar majmuasi hisoblanib, unga oid tarkibiy qismlar bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va ular asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy va kasbiy etuk, intellektual salohiyatli, kasbga ongli ravishda tayyorlashga didaktik asos bo'ladi. Intellektuallashtirilgan ta'lim vositalari bo'lajak o'qituvchilarni o'z kasbiy sohasida ma'lum yutuqlarga ega bo'lishida hamda o'z kasbiy faoliyatini rivojlantirishiga yordam beradi. Intellektual salohiyat uzoq yillar davomida shakllanadigan jarayon hisoblanib, bo'lajak o'qituvchilar uzluksiz ta'lim jarayonida ayniqsa, oliy ta'lim tizimida fanlar kesimini chuqur o'zlashtirish natijasida o'zlarida bu jarayonni hosil qiladilar. Bo'lajak o'qituvchilarni intellektuallashtirilgan ta'lim negizida pedagogik faoliyatga tayyorlash quyidagi natijalarni beradi.

Birinchiidan, intellektuallashtirilgan ta'lim negizida o'qitish vositalari va tizimlari bo'lajak o'qituvchilarni intellektual kasbiy faoliyatga talablariga javob beradigan, zamon bilan hamnafas bo'la oladigan kadrlarni tayyorlashga xizmat qilishga asos bo'ladi.

Ikkinchiidan, bo'lajak o'qituvchilarni intellektual faoliyatga tayyorlash uchun ishlab chiqilgan pedagogik ta'lim bosqichlaridan amaliy faoliyatda foydalanish negizida ta'limda yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish mumkin va ta'lim oluvchilarni zamonaviy innovatsion yondashuvlar qilishga ham tayyorlash mumkin bo'ladi.

Uchinchiidan, bo'lajak o'qituvchilarni intellektual salohiyatini, ijodkorligini, bilimdonligini, turdosh fanlar yuzasidan salohiyatlilikni va inovatsion jarayonning faol a'zosi bo'lish sifatlarini shakllanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
2. Shayxova X. Intellektual salohiyat – taraqqiyot mezon. – T.: "O'zbekiston", 2011 – 12 b.